

**QASHQADARYO VILOYATI KO'KDALA TUMANINING 2022-YILDAN  
2024-YILGACHA TASHABBUSLI BYUDJET JARAYONI LOYIHASIDA  
AMALGA OSHIRILGAN LOYIHALAR SONI VA SARFLANGAN  
MABLAG'LAR SALMOG'I DOIRASIDA QILINGAN TAHLILLAR  
NATIJALARI.**

*Turdiboyev Davlatmirzo*

*Xamzayev Begzod*

*Misirov Anvar*

*Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti*

*Moliya fakulteti 89-guruh talabalari*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Qashqadaryo viloyati Ko'kdala tumani tashabbusli byudjetlashtirish loyihalari doirasida ayrim tahliliy masalalar bayon qilinadi. Jumladan, tashabbusli byudjetlashtirish uchun yo'naltirilgan mablag'lar, amalga oshirilgan loyihalar, fuqarolar tashabbusli jamg'armasi mablag'lari shakillanish manbalari va amalga oshirilgan loyihalar tahlilini ko'rib chiqamiz.

**Kalit so'zlar:** Tashabbusli byudjet, taklif bildirish, mablag' ajratish, moderizatsiya, g'olib loyihani aniqlash, ovoz berish, pudrachini tanlash, shartnoma tuzish, qoldiq mablaglar, erkin qoldiq mablag'lar, tuman byudjeti, hisobot davri

Mamlakatimizda tashabbusli budjet jaroni barcha xududlarida jamoatchilik fikri asosida tashabbusli byudjetlashtirish jarayoni yuqori darajada amalga oshirilib yildan – yilga takomillashtirilib kelinmoqda. Bu jarayonni prizidentimiz Sh.Mirziyoyevning 2018-yil 28-avgustdagi "Byudjet ma'lumotlarining ochiqligini va byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini taminlash chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-3917-sonli, xamda 2021-yil 13-apreldagi "Byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PQ-5072-sonli qarorlariga asosan jadal ravishda amalga oshirib kelinmoqda. Xususan biz ham Qashqadaryo viloyati Ko'kdala tumani tumani tashabbusli budjetlashtirish uchun 2022-2024-yillarda yo'naltirilgan mablag'lar miqdorini jadval asosida ko'rib chiqdik va yo'lantirilgan mablag'larni sarhisob qilib chiqdik.

**1-jadval**

**Qashqadaryo viloyati Ko'kdala tumaning tashabbusli budjetlashtirish  
uchun yo'naltirilgan mablag'lar miqdori.<sup>1</sup>  
(ming so'mda)**

<sup>1</sup> <https://openbudget.uz/boards/reports>

T/r	Ko'rsatkich nomi	2022- yil	2023- yil	2024- yil
1.	Yil boshiga qoldiq	0		1248,0
2.	Hisobot davrida "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"ga o'tkazilgan mablag'lar	489,6	12 354,5	2600,0
3.	"Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"dan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo'naltirilgan	4 800000,0	22 35177,0	151,500
3.1.	<i>Bajarilgan ishlar uchun xisobvaraqlardan moliyalashtirilgan mablag'</i>	4 164823,0	8 698 968,0	0
3.2.	<i>Hisobvaraqlardagi qoldiq</i>	5 145270,0	5 117 887,0	0
4.	"Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"da qoldiq mablag'	9 960000,0	11 993920,0	3 999,5

Ushbu jadvalasosida Qashqadaryo viloyati Ko'kdala tumanining tashabbusli budjet loyihasiga ajratilgan mablag'larni sarhisob qilar ekanmiz, Qashqadaryo viloyati tashabbusli budjet jarayoni 2022-yil 2 mavsum uchun ajratilgan pul mablag'lari 140 351 000 000 so'mni tashkil etgan bo'lib undan 4 899 000 000 so'mni Ko'kdala tumaniga yo'naltirilgan. Shundan 2022-yilda Fuqarolar tashabbusi jamg'armasga o'tkazilgan mablag'lar 4 899 600 so'mni tashkil bo'lsa shundan 4 800 000 so'm Fuqarolar tashabbusi jamg'armasidan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo'naltirilgan. Bu ko'rsatkich 2023- yilga kelib 2 barobarga oshib 1-mavsum uchun ajratilgan mablag'lar 292 528 000 000 tashkil etgan bo'lib undan 16 238 000 000 so'mni Ko'kdala tumaniga yo'naltirilgan. Shundan 12 354 579 so'm Fuqarolar tashabbusi jamg'armasga o'tkazilgan. 2023-yil 2-mavsum uchun ajratilgan pul mablag'lari 135 280 121 988 so'm yo'naltirilgan bo'lib, Ko'kdala tumaniga 6 479 392 120 so'm yo'naltirilgan va Fuqarolar tashabbusi jamg'armasidan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo'naltirilgan umumiy mablag'la 22 235 177 so'mni, 2024-yilga kelib Qashqadaryo viloyatiga 1-mavsum uchun ajratilgan summa **253 045 200 000 so'm bo'lib, Ko'kdala tumaniga 14 723 600 000** ajratildi shundan 2 600 000 ming so'm Fuqarolar tashabbusi jamg'armasga o'tkazilgan. Bundan ko'rinib turibdiki Qashqadaryo viloyati Ko'kdala tumaniga ajratilgan mablag'lardan 3 999 500 ming so'm tejab qolingan.

Tashabbusli budjet jaronida Ko'kdala tumnida amalga oshirilgan tashabbusli budjetlashtirish natijasida amalga oshirilgan tadbirlar haqida to'xtaladigan bo'lsak, biz ushbu jadvalda (2-jadval) orqali yillar kesimida moliyalashtirilgan takliflar soni va

ularga ajratilgan mablag'lar haqida batafsil yoritib berishga harakat qildik. Ushbu jadvaldan biz 2022- yildan 2024-yillgacha bo'lgan davr oralig'ida jami nechta takliflar kiritilgan va qancha miqdorda pul mablag'lari sarflanganini ko'rishimiz mumkin.

**2-jadval**

**Qashqadaryo viloyati Ko'kdala tumanida tashabbusli budjetlashtirish natijasida amalga oshirilgan tadbirlar.<sup>2</sup>**

T/ r	Tadbirlar nomi	Moliyalashtirilgan takliflar soni			Sarflangan mablag' (mln so'mda)		
		2022-2-yil	2023-3-yil	2024-4-yil	2022-yil	2023-3-yil	2024-4-yil
<b>Jami</b>		<b>10</b>	<b>21</b>	<b>4</b>	<b>4,165</b>	<b>38,845</b>	<b>5,280</b>
1.	Hududiy ichki yo'llar	7	23	4	4,165	24,480	5,280
2.	Umumta'lim maktablarini ta'mirlash va jihozlash		2			4,400	
3.	Maktabgacha ta'lim muassasalarini ta'mirlash va jihozlash						
4.	Sog'liqni saqlash muassasalarini ta'mirlash va jihozlash		2			2,400	
5.	Boshqa ijtimoiy soha muassasalarini ta'mirlash va jihozlash		2			2,400	
6.	Ichimlik suvi ta'minotini yaxshilash						

<sup>2</sup> <https://openbudget.uz/boards/reports>

7.	Ko'cha chiroqlarini o'rnatish tadbirlari		4			4,800	
8.	Hududlarni tartibga keltirish (obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish)						
9.	Boshqa tadbirlar						

Qashqadaryo viloyati Ko'kdala tumani tumani tashabbusli budjetlashtirish natijasida amalga oshirilgan tadbirlar shuni ko'rsatadiki 2022- yilda hududiy ichki yo'llar soni 7 ta tashkil etgan bo'lib, sarflangan mablag'lar 4 164 823 ming so'mni, 2023-yilga kelib bu ko'rsatkich 23 ta hududiy yo'llar, ikkita loyiha maktablarni jihozlash, ikkita loyiha sog'liqni saqlash muassasalarinni ta'mirlash va jihozlash va ko'cha chiroqlarini o'rnatish va boshqa ijtimoiy soha muassasalarini ta'mirlash va jihozlash uchun sarflangan summa 38 484440,0 min so'min, 2024-yilning 1-mavsumida 4 ta hududiy yo'llarni tamirlash uchun sarflangan summa 5 280 000 ming so'mni tashkil etdi. Loyihalarnin 90 foizi ichki yo'llartni tamirlash loyihalariga ajratilgan.

Fuqarolar tashabbusli jamg'armasi mablag'larining shakllanish manbalari bo'yicha gaplashadigan bo'lsak bizga ma'lumki 2021-yil 1-iyuldan boshlab jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga ajratiladigan tuman (shahar) lar byudjetlari qo'shimcha mablag'larining eng kam miqdori 10 foizdan 30 foizga oshirildi 2022-yil 1-Yanvardan e'tiboran Respublikaning barcha tuman (shahar)larida tegishli byudjetlarning tasdiqlangan umumiy xarajatlarning 5 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirish bo'yicha yangi tartibni bosqichma-bosqich joriy etish belgilandi. Bizning keyingi jadvalimizda bu haqida ma'lumotlar bayon etib o'tganmiz.

### 3-jadval

#### Qashqadaryo viloyati Ko'kdala tumanida Fuqarolar tashabbusli jamg'armasi mablag'larining shakllanish manbalari.<sup>3</sup>

<sup>3</sup> <https://openbudget.uz/boards/reports>

Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi mablag'larini shakllantirish manbalari		2022-yil (mln so'm)	2023-yil (mln so'm)	2024-yil (mln so'm)
Tuman mahalliy budjeti tasdiqlangan umumiy xarajatlarning 5 foiz qismi miqdorida ajratilgan mabag'lar		3,414	8,972	3,249
Mahalliy budjetining yil boshiga shakllangan Erkin qoldiq mablag'lari				
Tuman mahalliy budjeti qo'shimcha manbalarning 30 fozi miqdorida ajratiladigan mablag'lar		8,856	2,092	2,100
Shu jumladan	Erkin qoldiq mablag'lari		1,334	2,100
	Daromadlarning hisobot choraklari yakunlari bo'yicha aniqlanadigan prognozdan oshirib bajarilgan qismi	9100	764	
	Iqtisod qilingan mablag'lar		5,900	1,515
Qo'shimcha ajratilgan				
	PQ-409ga asosan	1,200		
<b>Jami ajratiladigan mablag'lar</b>		<b>13,470</b>	<b>11,070</b>	<b>6,748</b>

Qashqadaryo viloyati Ko'kdala tumani tumanida Fuqarolar tashabbusli jamg'armasi mablag'larining shakllanish manbalarini 3-yil kesimida o'rganib chiqqan bo'lsak 2022- yilda tuman mahalliy budjeti tasdiqlangan umumiy xarajatlarning 5 foiz qismi miqdorida ajratilgan mabag'lar faqatgina 2-chorakda 3 414 000 ming so'm, tuman mahalliy budjeti qo'shimcha manbalarning 30 fozi miqdorida ajratiladigan mablag'lar 2- chorakda 285 600 ming so'm 3-chorakda 600 000 ming so'm, 2023-yilga kelib tuman mahalliy budjeti tasdiqlangan umumiy xarajatlarning 5 foiz qismi miqdorida ajratilgan mabag'lar 1-chorakda 4 489 500 ming so'mni, 3-chorakda 4 483 500 so'mni, Tuman mahalliy budjeti qo'shimcha manbalarning 30 fozi miqdorida ajratiladigan mablag'lar 1-chorakda 2 097 900 ming so'mni, erkin qoldiq mablag'lari 1 333 900 ming so'mni, daromadlarning hisobot choraklari yakunlari bo'yicha aniqlanadigan prognozdan oshirib bajarilgan qism 2-chorakda 764 000 ming so'mni,

iqtisod qilingan mablag'lar 1-chorakda 121 000 ming, 4-chorakda 469 079 ming so'mni shundan ajratilgan mablag'lar 12 354 579 ming so'mni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich 2024-yil 1- chorakka kelib, tuman mahalliy budjeti tasdiqlangan umumiy xarajatlarning 5 foiz qismi miqdorida ajratilgan mablag'lar 3 249 000 ming so'm, tuman mahalliy budjeti qo'shimcha manbalarning 30 fozi miqdorida ajratiladigan mablag'lar 2 100 000 ming so'm, iqtisod qilingan mablag'lar esa 151 500 ming so'm va jami ajratilgan mablag'lar miqdori 6 748 500 ming so'mni tashkil etdi.

Biz 4-jadvalda Qashqadaryo viloyati Ko'kdala tumani tashabbusli budjetlashtirish natijasida amalga oshirilgan loyihalar tarkibi haqida so'z olib boramiz, 2022-yildan 2024- yilgacha qanday loyihalar amalga oshirilgan va ularga qancha miqdorda pul mablag'lari sarflanganligi hamda fuqarolar qanday takliflarga ko'proq qiziqish bildirib, o'zlarini qiynab kelayotgan muammolarni bartaraf etishga intilayotganini ko'rishimiz mumkin. Bizga ma'lumki 2021-yildan boshlab Tashabbusli byudjetlashtirish, 2022-yildan boshlab Mening yo'lim, 2023-yildan boshlab esa Obod qishloq va Obod maxalla dasturlari Ochiq byudjet portaliga joylangan va keng foydalanishga topshirilgan xamda ushbu dasturlar orqali fuqarolar o'zlarini qiynab kelayotgan muammolar yuzasidan qatnashib bu muammolarga samarali yechim topayotganini ko'rishimiz mumkin.

**4-jadval****Qashqadaryo viloyati Ko'kdala tumanida tashabbusli budjetlashtirish natijasida amalga oshirilgan loyihalar tarkibi.<sup>4</sup>**

<b>T/r</b>	<b>Tadbirning qisqacha mazmuni (sohasi)</b>	<b>Jami to'plagan ovozlar soni</b>	<b>Moliyalashtirish uchun ajratilgan mablag' miqdori (mln so'm)</b>
1.	Ko'kdala tumani O'tamayil MFY Otamayil qishlog'i Ko'kdala MFY bilan bog'lovchi Ko'kdala-Otamayil-Alatun ichki yo'liga 2,4km uzunlikdagi qismiga asfalt yotqizish	10325	1, 200
2.	Ko'kdala tumani Qumdaryo MFY Oqtunli qishlog'ini ichki yo'llarini 2 kmbuzilgan yo'lini yamash hamda 2 km tuproq yo'liga asfalt yotqizish	7657	1, 200

<sup>4</sup> <https://openbudget.uz/boards/reports>

3.	Qashqadaryo viloyati Ko'kdala tumani Hardor MFY kirish qismiga 2430 metr eski asfalt yo'lini tamirlash va 2000 metr tosh aralash tuproq yo'lga asfalt yotqizish tashabbusini ilgari surilgan	6741	1, 200
4.	Qashqadaryo viloyati Ko'kdala tumani Zum MFY ichki yo'llarni 700 metr asfalt yotqizish va 6350 metr tosh yo'l qilish	3194	1, 200
<b>Jami</b>		4 ta loyiha	<b>4, 800</b>

Qashqadaryo viloyati Ko'kdala tumani tumani 2022-yilda tashabbusli budjetlashtirish natijasida amalga oshirilgan loyihalar tarkibi 4ta loyiha amalga oshirilgan bo'lib ajratilgan mablag'lar 4 800 000 ming so'mni tashkil etgan bo'lib 1-loyihani 10325 ovoz bilan Ko'kdala tumani O'tamayil MFY Otamayil qishlog'i Ko'kdala MFY bilan bog'lovchi Ko'kdala-Otamayil-Alatun ichki yo'lga 2,4 km uzunlikdagi qismiga asfalt yotqizish loyihasi, 2-loyihani 7657 ovoz bilan Ko'kdala tumani Qumdaryo MFY Oqtunli qishlog'ini ichki yo'llarini 2 km buzilgan yo'lini yamash hamda 2 km tuproq yo'lga asfalt yotqizish loyihasi, 3- loyihani 6741 ovoz bilan Qashqadaryo viloyati Ko'kdala tumani Hardor MFY kirish qismiga 2430 metr eski asfalt yo'lini tamirlash va 2000 metr tosh aralash tuproq yo'lga asfalt yotqizish loyihasi va 4- loyihani 3194 ovoz bilan Qashqadaryo viloyati Ko'kdala tumani Zum MFY ichki yo'llarni 700 metr asfalt yotqizish va 6350 metr tosh yo'l qilish loyihasi qolga kiritgan.

T/r	2023-yil loyihalarning qisqacha mazmuni (sohasi)	Jami to'plagan ovozlar soni	Moliyalashtirish uchun ajratilgan mablag' miqdori (mln so'm)
-----	--	-----------------------------	--

1.	Ko'kdala tumani Chuvloq MFY Birodarlik ko'chasi 1 km Buyuk sulola kochasiga 1,5 km jami 2,5 km eski asfalt yo'llarini qayta asfalt qilish	17378	1, 200
2.	Ko'kdala tumani O'tamayil MFY ichki asosiy Ko'kdala O'tamayil-Alatun avtomobil yo'liga umumiy uzunligi 2,4 km, eni 4,5 metr yangi asfalt yotqizish	16647	1, 200
3.	Naymansaroy MFY G'alabek qishlog'idan A378 yo'liga olib chiquvchi 2,8 km yo'lini yangittan asfalt yotqizish	15376	1, 200
4.	Taloqtepa MFY hududida joylashgan tuman XTB ga qarashli 58 umumta'lim maktabi 12*24 o'lchamda sport kompleksi qurish	15105	1, 200
5.	Xarduri MFY Yangihayot qishlog'i mahalla binosidan Axmad Yassaviy markazigacha 2,3 km yangi asfalt qilish	14737	1, 200
6.	Pasxtalisoy MFY dagi 42- maktab oldidan o'tuvchi Oltinsoy ko'chasiga jami 2 km asfalt yotqizish	13816	1, 200
7.	Torjilg'a MFY Torjilg'a qishlog'idagi ichki yo'llar hususan katta yo'ldan 63-OP gacha 500 metr asfalt, 32- maktab yonidagi Loy ko'chaga 500 metr asfalt va boshqa ko'chalarga 1100 metr jami 2100 metr asfaltlashtirish	5584	1, 200
8.	Suvliq MFY dagi Suv bo'yi ko'chasini 700 metr, Yangi Nur ko'chasini 700 metr, Shov ovulidagi Baxshida ko'chasini 350 metr, Shov ovulidagi Gul chaman ko'chasini 350 metr, jami 2100 metr asfaltlashtirish	3191	1, 200
9.	Ko'kdala tumani markaziy shifoxonasi va ko'p tarmoql poliklinikasiga tibbiy apparatlar sotib olish	2859	1, 200
10	Zum MFYning tashabbuskor, Tafakkur, Holisona, Yurtobod, Safardor hiyobon	2741	1, 200



	ko'chalarining tosh yo'llariga jami 2200 metr asfalt yotqizish		
<b>Jami</b>	10 ta loyiha		12,000

2023-yilda Ko'kdala tumanida jami yutib chiqqin loyihalar soni 13 tani tashkil etib ajratilgan mablag'lar 1 560 000 ming so'mni tashkil edi. Bu loyihda eng ko'p ovoz toplagan 17378 ta ovoz bilan Ko'kdala tumani Chuvloq MFY Birodarlik ko'chasi 1 km Buyuk sulola kochasiga 1,5 km jami 2,5 km eski asfalt yo'llarini qayta asfalt qilish loyihasi birinchi o'rinni egalladi. Ikkinchi o'rinni 16647 ovoz bilan Ko'kdala tumani O'tamayil MFY ichki asosiy Ko'kdala O'tamayil-Alatun avtomobil yo'liga umumiy uzunligi 2,4 km, eni 4,5 metr yangi asfalt yotqizish loyihasi qo'lga kiritgan. Shu loyihalardan eng oxirgi o'rinda 2016 ta ovoz bilan Baxt MFYda mavjud eskirgan simyog'och o'rniga 500 ta yangi simyog'och va 5 ta transformator o'rnatish loyihasi qo'lga kiritgan.

**2023-yilning 2- mavsumida mahalliy budjet mablag'lari yetmaganligi sababli 2024-yilda 1-mavsumida amalga oshirilgan loyihalar.<sup>5</sup>**

<b>T/r</b>	<b>2023-yil loyihalarning qisqacha mazmuni (sohasi)</b>	<b>Jami to'plagan ovozlar soni</b>	<b>Moliyalashtirish uchun ajratilgan mablag' miqdori (mln so'm)</b>
------------	---	------------------------------------	---

	AT-Termiziy ko'chasida joylashgan 54-maktabdan 60-maktabgacha bo'lgan 2,2 metr masofani asfalt qilib o'quvchilarga qulaylik yaratish	8176	1,320
	Torjilg'a mahallasidagi ichki yo'llar hususan Asalbuloq ko'chasiga 500 metr asfalt Jilvador ko'chasiga 300 metr asfalt vaboshqa ko'chalarga 1900 metr asfalt jami 2700 metr ichki ko'chalarga asfalt yotqizish	8137	1,320
	Katta yo'ldan Machirgacha yoni 2,5 metr (beton), uzunligi 1,5 km balandligi 15-20 sm	7793	1,320

<sup>5</sup> <https://openbudget.uz/boards/reports>

	biton yo'l Machitdan 74- maktabgacha eni 5 metr uzunligi 2 km asfalt yotqizish		
	Suvlik MFYdagi Suvbo'yi ko'chasini eni 4,5 metr, uzunligi 850 metr, Yanginur ko'chasini eni 4,5 metr, uzunligi 850 metr, Shov ovulidagi Baxshilar ko'chasini eni 4,5 metr, uzunligi 400 metr, Shov ovulidagi Gulchaman ko'chasini eni 4,5 metr, uzunligi 400 metr qismini asfaltlashtirish	7595	1,320
<b>Jami loyihalar</b>	<b>4 ta loyiha</b>		<b>5,280</b>

2024-yilni 1- mavsumi bo'yicha loyihalarni moliyalashtirish uchun yo'naltirilgan mablag'lar sirxisob qiladigan bo'lsak 2023-yilning 2-mavsuda g'olib bo'lgan loyihalarni moliyalashtirish uchun yo'naltirilgan mablag'larning jami miqdori 5 280 000 ming so'mni tashki etdi va bu loyiha to'rtta loyihani o'z ichiga oldi. Bu loyihada eng ko'p ovoz bilan 8176 ta AT-Termiziy ko'chasida joylashgan 54- maktabdan 60- maktabgacha bo'lgan 2,2 metr masofani asfalt qilib o'quvchilarga qulaylik yaratish uchun qilingan loyiha birinchi o'rinni egalladi. Ikkinchi o'qinni 8137 ta ovoz bilan Torjilg'a mahallasidagi ichki yo'llar hususan Asalbuloq ko'chasiga 500 metr asfalt Jilvador ko'chasiga 300 metr asfalt vaboshqa ko'chalarga 1900 metr asfalt jami 2700 metr ichki ko'chalarga asfalt yotqizish loyihasi, uchinchi o'rinni 7793 ovoz bilan Katta yo'ldan Machirgacha yoni 2,5 metr (beton), uzunligi 1,5 km balandligi 15-20 sm biton yo'l Machitdan 74- maktabgacha eni 5 metr uzunligi 2 km asfalt yotqizish loyihasi va 7595 ovoz bilan Ko'kada tumanining oxirgi o'rinini Katta yo'ldan Machirgacha yoni 2,5 metr (beton), uzunligi 1,5 km balandligi 15-20 sm biton yo'l Machitdan 74- maktabgacha eni 5 metr uzunligi 2 km asfalt yotqizish loyihasi qo'lga kiritdi. Xar bir loyihaga ajratilgan summa 1 320 000 ming so'mni tashkil etdi.<sup>6</sup>

Xulosa qilib shuni aytish kerakki Qashqadaryo viloyati Tashabbusli budjet loyihalarda eng ko'p ovoz to'plab kelayotgan viloyatlar qatoriga kiradi. Tashabbusli budjet loyihasi yildan yilga ommalashib bormoqda va buni xalq o'z manfaatlari yo'lida to'g'ri va vijdonan foydalanib kelinmoqda. Tashabbusli budjet loyihasi amalga oshirishdan maqsad aholining turmush darajasni yashilash, mabag'i kam daromadligi past bo'lgan viloyat va tumanlarni turmush darajasini yaxshilashdan iboratdir.

Qayd etib o'tish lozimki, 2023-yilning ikkinchi mavsumi uchun «Tashabbusli budjet» uchun ovoz berish jarayoniga **9436 ta** mahalladan **50 mingga yaqin** loyiha ilgari surilgan edi. Ularning **33,5 mingtasi** tasdiqlangan. 2023-yilning ikkinchi mavsumi uchun o'tkazilgan tanlovda **1012 ta** mahalladan **1187 ta** loyiha g'olib bo'ldi. G'olib loyihalarning summasi **1 trln 314 mlrd 565 mln 965,5 ming so'mni** tashkil etgan. Tashabbuslarni qo'llab-quvvatlab, **18 mln 115 ming 86 ta** ovoz berilgan. 2023-yilning birinchi mavsumiga solishtiriladigan bo'lsa, ilgari surilgan tashabbuslar soni biroz kamaygan — birinchi mavsumda tashabbuslar soni **55 ming 970 ta** edi. Ularning **33 ming 680 tasi** tasdiqlangan edi. Ovoz berish soni ortgan. Birinchi mavsumda **16 mln 129 mingta** ovoz to'plangan edi. Birinchi mavsumda tashabbuslar uchun yo'naltirilgan mablag'lar hajmi ham qariyb ikki barobar ko'p edi — **2 trln 882,9 mlrd so'mni tashkil etgan**. Ikkinchi mavsumda ilgari surilgan takliflarning 15 ming 140 tasi (31 foiz) ichki yo'llarni ta'mirlashga oid. 14 ming 835 ta taklif (30 foiz) mahalla hududini obodonlashtirish tadbirlariga qaratilgan. Maktablar bo'yicha 6 ming 820 ta (14 foiz), bog'chalar bo'yicha 3024 ta (6 foiz), tibbiyot muassasalari bo'yicha 3100 ta (6 foiz) taklif kelib tushgan. Viloyatlar kesimida olib qaralsa eng ko'p g'olib bo'lgan loyihalar Toshkent viloyatida — **122 taloyiha bilan**. Ikkinchi o'rinda Samarqand viloyati — **113 ta loyiha bilan va** Qashqadaryo viloyati — **100 ta loyiha bilan uchinchi o'rinni egallagan edi**.

2024 yilgi «Tashabbusli budjet» loyihasi 1-mavsumida Qashqadaryo viloyati, Yakkabog' tumanidagi «Qo'shchinor» mahallasi eng ko'p ovoz to'plashga erishdi. Qayd qilinishicha, mahalla loyiha uchun qariyb 15 mingta ovoz to'plagan va bu ko'rsatkich bo'yicha respublikada birinchi bo'lgan. Shu bilan birga, Qashqadaryo viloyati ham respublika bo'ylab rekord darajadagi eng ko'p ovoz to'plagan 1,5 milliondan ortiq. Bu jami ovozlarning 44 foizini tashkil qilgan. Ma'lumotga ko'ra, Qashqadaryo viloyatiga 1-mavsumda 253 mlrd so'm mablag' ajratilgan, 2188 ta loyihalar saralab olingan, 152 ta mahalla bo'yicha 183 ta loyiha g'olib bo'ldi. Tashabbusli byutjetlashtirishda yildan-yilga fuqarolarning ishtiroklari ortib bormoqda. Buning natijasi o'laroq mamlakatimizning ko'zga ko'rinmagan ijtimoiy sohalari fuqarolarimiz tomonidan muhokama qilinib, takliflar asosida o'z yechimini topmoqda. Bu esa mamlakatimizning byutjet mamlag'larini oqilona foydalanish imkonini bermoqda.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ваҳобов АВ, Маликов ТС. Молия. Дарслик/Тошкент Молия институти. Тошкент: "Шарк. 2010;804.
2. Malikov, T., and Haydarov NH. Byutjet. "O'quv qo'llanma." Toshkent: "Iqtisod-moliya 84 (2008).
3. TS Malikov, O Olimjonov. Moliya. - O'quv qo'llanma. Toshkent: Iqtisod-moliya, 2018

4. Malikov T, Haydarov N. Budjet daromadlari va xarajatlari. O'quv qo'llanma, Toshkent: "IQTISOD-MOLIYA. 2007.
5. Маликов ТС. Хайдаров НХ "Молия: умумдавлат молияси". Ўқув қўлланма. 2009.
6. Malikov TS. Byutjet-soliq siyosati. T.: "Iqtisod-moliya. 2019.
7. Malikov, T. S., & Olimjonov, O. O. (2019). Moliya: Darslik.
8. Malikov T, Haydarov N. Byutjet: tizimi, tuzilmasi, jarayoni. O'quv qo'llanma, Toshkent "IQTISOD-MOLIYA. 2008.
9. Ўроқов У. Бюджет маблағларидан самарали фойдаланишни таъминлаш йўллари. Т. 2017
10. У Ўроқов. Маҳаллий бюджетлар мустақиллигини оширишнинг устувор йўналишлари- Science and Education, 2022
11. У Ўроқов, Д Ускенбаева. Ўзбекистонда ташаббусли бюджетни жорий этишнинг ташкилий-ҳуқуқий асослари - Science and Education, 2022
12. Ўроқов У, Иргашев И, Файбуллаев О. Фуқаролар иштирокидаги маҳаллий бюджет. 2022
13. УҮ О'роқов, JA Yomg'Irov. Mahalliy byutjetlar barqarorligini ta'minlash masalalari - Central Asian Research Journal for Interdisciplinary ..., 2022
14. Ўроқов УЮ. Маҳаллий бюджетлар шаффофлиги ва очиқлигини таъминлашнинг устувор йўналишлари. Бизнес-Эксперт журналы. 2020;4.
15. Ўроқов У. Файбуллаев О. Ўзбекистон Республикасида бюджет тизими ва жараёни: ўқув қўлланма. Тошкент: Baktria press. 2016.
16. Уроков У. Маҳаллий бюджетлар мустақиллигини оширишга оид назарий қарашлар. Республика илмий-амалий конференция. ТМИ 2020.
17. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар молиявий барқарорлигини белгиловчи кўрсаткичлар. 2020
18. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар даромадларини шакллантиришнинг самарали йўллари. 2017
19. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар даромад базасини кенгайтириш масалалари. Республика ўқув юртлараро конференция тўплами. ТМИ-2009 йил (Vol. 18).
20. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар молиявий мустақиллигини оширишнинг замонавий муаммолари. Халқаро илмий-амалий анжуман материаллари тўплами. ТМИ 2022 йил.
21. У Ўроқов. Маҳаллий бюджетлар молиявий мустақиллигини оширишнинг ҳуқуқий асослари.- Science and Education, 2023
22. G'aybullayev O, O'roqov U. O'zbekiston Respublikasida budjet tizimi va jarayoni. O'quv qo'llanma. T.: Baktriapress. 2016;168.
23. Haydarov N. Soliqlar va soliqqa tortish masalalari. O'quv qo'llanma. Toshkent: Akademiya. 2007.

24. Хайдаров НХ. Маҳаллий бюджетлар: муаммо ва инновацион ечимлар. Ўзбекистон статистика ахборотномаси” илмий электрон журнали. 2020.
25. Хайдаров Н. Доходы местных бюджетов и пути их укрепления. “Молия” илмий журнали. 2022.
26. Хайдаров Н. Маҳаллий бюджетларнинг даромад манбалари. халқаро илмий-амалий конференция 2022.
27. Хайдаров Н. Маҳаллий бюджетлар даромадини барқарорлаштириш йўллари. халқаро илмий-амалий конференция мақолалар тўплами (Vol. 2022)
28. Ikramjon Masharipov. Yangi O‘zbekistonda zamonaviy fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanish jarayonlari. Общество и инновации. 202
-